



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



---

## QUALITIES THAT DETERMINE PERSONALITY MATURITY IN HAFIZ KHOREZMI'S WORK

Sh.Ye. Kurbanova<sup>1</sup>

*Urganch State Pedagogical Institute*

---

### KEYWORDS

Hafiz Khorezmi, personality development and its qualities, image, friend, creator, artistic expression, education and moral principles

### ABSTRACT

In this article, Hafiz Khorezmi's views on the artistic expression of qualities that determine the perfection of a person are discussed.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.10626018**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

---

<sup>1</sup> Tutor of the Faculty of Philology and History, Urganch State Pedagogical Institute, Uzbekistan

# HOFIZ XORAZMIY IJODIDA SHAXS KAMOLOTINI BELGILOVCHI FAZILATLAR

## KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Hofiz Xorazmiy, shaxs kamoloti va uning fazilatleri, obraz, do'st, ijodkor, badiiy ifoda, tarbiya va axloqiy tamoyillar

## ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada Hofiz Xorazmiy qarashlarida shaxs kamolotini belgilovchi fazilatlarining badiiy ifodasi haqida fikr yuritiladi.

Barchamizga ma'lumki qadimdan Sharqda yoshlar tarbiyasi, ideal shaxs kamoloti va jamiyatdagi oilaviy munosabatlar masalasiga alohida, jiddiy ahamiyat berilgan. Jumladan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy va boshqa allomalar bu masala yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bularni ilmiy asosda o'rganish va tahlil qilish orqali zamonamizga xos yetuk shaxs masalasida yechim topish mumkin. Avvalo, Shaxs kamoloti bu-muayyan pedagogik, tarixiy shart-sharoitlarda shaxsda tarkib toptirilishi lozim bo'lgan qobiliyat va iqtidor, uning mohiyatini tashkil etadigan barcha jihatlarning to'liq rivojlanishi va shu asosda ma'naviy-axloqiy kamolotga yetishishi hamda madaniy-ma'rifiy insoniyat jamiyatining bir bo'lagi bo'lish tushuniladi. Hofiz Xorazmiy insonni komillikka yetaklovchi, ishq olamida ogohlikka da'vat etuvchi ruhini yomon illatlardan forig' qiluvchi olijanob insoniy tuyg'ularni mujassamlashtirgan.

“Kattaga hurmat, kichikka izzat” ko'rsatish qadimdan Xorazmda davom etib kelayotgan madaniy-axloqiy an'ana, adabiy-mifologik tushunchalardan biri hisoblanadi. Zero, Hofiz Xorazmiy o'zidan oldin o'tgan shoirlardan Hofiz Sheroziy ijodiga hurmat bilan qaragan.<sup>2</sup> Hofiz Xorazmiy turkiy tildan tashqari, fors-tojik tilini mukammal bilgan bo'lsa kerak, Hofiz Sheroziy ijodini qunt bilan o'rganib, hatto o'zining bir qancha g'azallarini unga bag'ishlagan.

*Ko'ngilni oldi ol birla o'shul dildor-i Sheroziy,  
Bu xasta jong'a soldi shirinkor-i Sheroziy. ,  
Nabotu qand-i Misrni xijolatda tutar doim  
Shakarxanda bila ul la'l-i shakarbor-i Sheroziy*

...

*Nechakim ishqda Bag'dod tarrori erur Hofiz,  
Vale aldar o'shul tarrorin ayyor-i Sheroziy.<sup>3</sup>*

Hofiz Xorazmiy devonidagi obrazlari orqali insonni komillikka yetaklovchi, ruhini

<sup>2</sup> Хофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. - 7-8-б.

<sup>3</sup> Хофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 2-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. - 248-б.

yomon illatlardan forig' qiluvchi yuksak fazilatlar xususida fikr yuritiladi. Bu o'rinda har jihatdan nafsini jilovlagan oshiqlar obrazi alohida ahamiyatga ega. Ular Alloh diydoriga yetishdek ezgu maqsad sari intiladi. U ba'zan san'at vositasi sifatida tasavvufga<sup>4</sup> to'xtalsada, odatda ishq mavzularini ko'ramiz.

*Da'vo-yi ishq qilsam ul da'vo haq ko'rungay,  
Holing'a ushbu so'zlar chunkim erur shavohid.  
Ganj-i ma'oniy topding pir-i mug'on qoshinda,  
Hofiz, sanga yarashmas o'sh emdi kunji masjid.<sup>5</sup>*

Yuqorida keltirilgan misolda Hofiz ilohiy qarashlarini obrazli tarzda ochib, uni o'quvchiga turli bo'yoqlarda yetkazishni maqsad qiladi. Jumladan, "ishq" yo'lida qilinayotgan "da'vo" to'g'ri va "ishq" uchun "haq"qa qilinayotgan "da'vo" shaklida qabul qilmoq kerak. Undan shoirona shaklda ustomonlik bilan foydalanadi. Kitobxon bu g'azalni o'qiganda jumlar xayolan ma'lum ritmga kiradi. Bu onda u ham Hofiz ko'nglining ohangdoshi bo'lib qolganligini payqaydi. Qulog'i ostida ajib qofiyalar ilohiy ishq sari chorlayotgan go'zal bir musiqani kuylaydi.

Hofiz ijodini varaqlar ekanmiz, bular bir tarafdin dilkash do'st ba'zan esa jonkuyar oila a'lolarining biri, ba'zan esa haqiqatgo'y inson qiyofasida bildirilayotganday tuyiladi. Insonning olijanob tuyg'ulariga hech nima g'ov bo'lolmagan, sevgiga to'sqinlik qiluvchi narsa o'ta ketgan haqsizlik va jabr bo'lganidan, davrning ilg'or kishilari bunga qarshi kurashganlar. Shu sababdan Sharq xalqlari adabiyotida, ana shu jumladan o'zbek xalqi adabiyotida sevgi-muhabbat mavzusi adiblarning diqqat markazida turgan. Sharq klassik adabiyotiga xos an'anaviy muhabbat va ishqiy sarguzashtlarga asoslangan oshiq va ma'shuq sevgisiga xos kechinmalariga ilmiy jihatdan chuqurroq yondashib, nazar soladigan bo'lsak, aslida yetakchi obrazlarga vafodorlik va vafosizlik, sotqinlik va sadoqat, do'stlik va dushmanlik, samimiylik va xudbinlik, xokisorlik va ayyorlik singari insonga xos sifatlar aks etgan syujet qamrovidagi sinovlar qo'yilganligiga guvoh bo'lamiz. Bu esa shaxs kamolotini belgilovchi fazilatlarini qiyoslash imkonini beradi bizningcha. Zotan ijodkor do'st haqida so'z yuritar ekan, uning qiyofasida insoniyat yashagan borliq- xislatlarni yaratadi. Shu sababdan bo'lsa kerak, uning g'amginligida har kim o'z g'amginligini ko'radi, uning quvonchida har kim o'z quvonchini ko'radi. Do'st qiyofasida faqat Hofiznigina emas, har bir inson umuman barcha insoniyat o'zining tabiiy go'zallikka oshno birodarini ko'radi.

*Yangoqing o'ti solur jong'a nuru nor, ey do'st,  
Ul o't bila bu jahon ichra jon yonar, ey do'st.*

...

*Duochidur sanga Hofiz agar kerak bo'lsa,  
Firoq elinda oni tutma xoru zor, ey do'st.<sup>6</sup>*

Insonning eng muqaddas tuyg'ulari ko'ngilda jo bo'ladi. Ko'ngil ilohiy ma'noga ham ega. Oshiq ko'ngli yorga bo'lgan sadoqat va muhabbatni jonidek aziz ko'radi.

<sup>4</sup> Рецеп Т. Hârezmli Hâfîz'ın Divanı İnceleme-Metin-Tıpkıbasım. - Ankara: 1998, Türk Dil Kurumu Yayınları

<sup>5</sup> Хофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. - 92-б.

<sup>6</sup> Хофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. - 63-б.

*Boshin o'ynamoq uchun ishq yo'linda Hofiz  
Sidq-i jon birla tavakkaltu ala-l-loh qilur.<sup>7</sup>*

Yuqoridagi jumlagi ishlatilgan “ala-l-loh”ni ikki jihatdan ko‘rish mumkin. Jumladan, “tavakkaltu alalloh”, ya’ni ollohga tavakkal qilish deya birinchi jihatini olsak. Ikkinchi muhim jihati “tavakkul” yoki “tavak-kal” jumlasini tariqat maqomi bo‘lib, komil e’tiqod va to‘la ishonch bilan o‘zini yaratganning ixtiyoriga topshirib, dunyo, tirikchilik va nafs tashvishidan butunlay forig‘ bo‘lish, deya olamiz.

Hofiz devonidagi bosh obrazlarning visolga bo‘lgan intilishi zamonasiga xos alohida aqliy tarbiya va axloqiy tamoyillar bilan tasvirlangan. Go‘zal tarzda, nozik did va nafosat bilan yozilgan bu satrlar bosh obrazga qanchalik ta’sir o‘tkazmasin, ayriliq dardi, hijron azobi unga hamohangdir. Devonda bosh obraz bo‘lmish oshiqni biz yuksak yetuk axloqiy, insonparvar, samimiy shaxs va bu tuyg‘ularning targ‘ibotchisi sifatida ham qabul qilishimiz mumkin. Ammo, ma’shuqasining vafosizlikdan, muruvvatsizligidan shikoyati zamirida o‘z zamonasidagi mavjud ijtimoiy-axloqiy tuzumidan qoniqmasligini ham sezamiz. Darhaqiqat, visolga yaqinlashgan oshiq uchun uning qarashlari axloq doirasida yetuk ma’naviyatli obrazga ko‘chib, madaniy ko‘rinishi va targ‘iboti ma’rifat kalitiga aylanadi.

Hofiz Xorazmiy obrazlarining holat-xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirishi bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy voqelik, xalqning irfoniy-ilohiy kuzatishlari, falsafiy mushohadasi, dunyoqarashi, urf-odatlarini ham o‘zida badiiy ifoda ettiradi. Ijodkor tasvirlagan oshiq obrazi asosan badiiy reallik mahsuli komil inson, go‘zal xulq sohibi va boshqa shakllarda beriladi. Shoir har bir g‘azali so‘ngida, ma’lum ma’noda, misralar syujetidagi ishq mohiyatiga izoh berarkan, u bilan bog‘liq ravishda bosh obraz maqomi, holati haqida o‘z taxallusi orqali to‘xtalib o‘tadi. Buni biz ko‘p hollarda g‘azalning so‘ngi ikki misrasida “Hofiz” shaklidagi jumlar bilan ko‘rishimiz mumkin. Albatta, devonda Sharq adabiyotining an’anaviy oshiq tuyg‘ulari real shaxs kechinmalari bilan hamohanglashadi. Bu real shaxs kechinmalari syujeti umumiylikdan kompozitsiyasi aniqlikka ko‘chadi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri Hofiz Xorazmiy shaxsiga ishora qiladi. Yakunida Hofiz Xorazmiy real shaxs holatida oshiq obrazi kechinmalari tasvirlaydi. Ya’ni, o‘zi bosh obraz oshiqqa aylanadi.

*Yorsiz jon bila zinda bo‘la bilman Hofiz,  
Yor erur jon taqi jon birla jahondur chun tan.<sup>8</sup>*

...

*Bo‘lmadi aning birla manga vasl muyassar,  
Chun shoh-i jahondur taqi man Hofiz-i darvesh.<sup>9</sup>*

Hofiz Xorazmiy shaxs kamolotini belgilovchi fazilatlar sifatida yetuk shaxsini ma’naviy-axloqiy jihatdan ochib berishga harakat qiladi va uning e’tiqodini quvvatlaydi. Avvalo, u inson e’tiqodiga ma’naviy-axloqiy quvvat berish deganda, dastlab, insonlarda yetuk falsafiy-axloqiy tushunchalarga asoslangan diniy-ma’naviy ongini shakllantirish, insonning bu yo‘ldagi his-tuyg‘ularni tarbiyalash va rivojlantirish, xulq-atvor ko‘nikma va

<sup>7</sup> Хофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПИМК, 1981. - 131-б.

<sup>8</sup> Хофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 2-китоб. - Т.: ЎзКПИМК, 1981. - 65-б.

<sup>9</sup> Хофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПИМК, 1981. - 272-б.

odatlarini tarkib toptirish, deya qaragan. Bu jihatdan, shoir biografiyasi va shaxs kamoloti haqidagi qarashlarini yaratishga jur'at qilar ekanmiz, hozircha yakkayu yagona va ishonchli manba sifatida faqat uning o'z devoniga suyana olarmiz, xolos.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. I.Ergashev, Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari, Fan, -T.: 2016. 210-bet
2. Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: Innovatsiya- Ziya, 2020. - 540 b.
3. Recep T. Hârezmli Hâfız'ın Divanı İnceleme-Metin-Tıpkıbasım. - Ankara: 1998, Türk Dil Kurumu Yayınları
4. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. - 528 b.
5. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. - T.: Akademnashr, 2020. - 158 b.
6. Zamonov Z va boshqalar."Tarbiya" o'qituvchi uchun metodik qo'llanma.- T.:Zamin nashr,2020
7. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 1-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. – 304 б.
8. Ҳофиз Хоразмий. Девон. 2 том. 2-китоб. - Т.: ЎзКПМК, 1981. – 312
9. Сулаймон Ҳ. Ўзбек шоири Ҳофиз Хоразмий ва унинг Ҳайдарободдан топилган девони. // Ж.: Адабий мерос. - Т.,1976. 6-сон., - 34-43 б.
10. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)
11. [www.literatura.ru](http://www.literatura.ru)
12. [www.teis.yesevi.edu.tr](http://www.teis.yesevi.edu.tr)
13. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)